XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-031-10-0-K/24 Toshkent viloyati

Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini “E-auksion” platformasi orqali realizatsiya qilish uchun narxlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-maydagi “Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 282-son qarori, Toshkent viloyati hokimi o‘rinbosari N.Sharipovning 2024-yil 19-noyabrdagi 5-4-5633-son xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-maydagi 282-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qaroriga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlari qarori bilan tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab qo‘llaniladigan 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi;

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari qarori bilan ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha bo‘yicha qo‘llaniladigan 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati berilganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tashkil etish, yirik investitsiya loyihalarini joylashtirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori talablaridan kelib chiqib, onlayn-auksion orqali sotilgan yer maydonlari viloyat tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liqligini inobatga olib, hududlarida daha, massiv, mahalla va ko‘cha joylashganligi bo‘yicha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashi bir xafta muddatda:

mazkur qarorga muvofiq Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashi qarorini ishlab chiqib, sessiyalarda tasdiqlash tavsiya etilsin.

5.Viloyat hokimligi Axborot xizmati (B.Kabulov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.Eralieva) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi M.G‘aniyev hamda viloyat hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari N.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi FAYZIYEVA SAYYORA MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-031-10-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishda qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

№	Yo‘nalishlar kesimida	**100** dan **1000** gacha *(kv.m)*	**1000** dan **10 000** gacha *(kv.m)*	**10 000** dan **30 000** gacha *(kv.m)*	**30 000** va undan yuqorisiga *(kv.m)*
1	Tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘ra	1,5	1,3	0,7	0,5
2	Hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘chalar bo‘yicha	1,5	1,3	0,7	0,7